

## ӮQITUVCHINING KREATIVLIK QOBILLIYATI

Niyazmetova Nargiza

Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi kafedra o'qituvchisi.

Bazarova Shirin

Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lif fakulteti 3-bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o'qituvchining kreativlik qobiliyati haqida so'z borarkan bugungi kun o'qituvchilari zamon bilan hamnafas bo'lishi kerakligi, o'quvchilar nima bilan yashayotganini tushinishi hamda ularga mos holda bo'lishi darkor. Hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, zamonaviy, interfaol, talant, yaratuvchanlik, qiziqtirish, pedagogik ijodkorlik.

### ANNOTATION

When talking about a teacher's creative ability in this article, today's teachers need to keep up with the times, understand what students are living with, and be relevant to them. Implementing modern standards requires a teacher not only high skills and continuous professional development, but also a creative approach to their work.

**Keywords:** creativity, modern, interactive, talent, creativity, interest, pedagogical creativity.

### АННОТАЦИЯ

Говоря о творческих способностях учителя в данной статье, современные учителя должны идти в ногу со временем, понимать, чем живут ученики, и быть актуальными для них. Внедрение современных стандартов требует от педагога не только высокой квалификации и постоянного профессионального развития, но и творческого подхода к своей работе.

**Ключевые слова:** творчество, современный, интерактивный, талант, креативность, интерес, педагогическое творчество.

### INTRODUCTION

XXI asr axborotlar oqimi davrida ijtimoiy hayotimizning barcha jabxalariga, shu jumladan talim-tarbiya sohasiga ham ko'plab yangiliklar kirib kelmoqda. Ushbu yangiliklar bilan bir qatorda ularni yorituvchi yangi tushunchalar ham bizning ilmiy tilimizda qo'llanilishi kuzatilmoqda. Jumladan pedagogika, yani ta'lif-tarbiya sohasida keyingi 20-yil ichida «kreativlik» tushunchasiga alohida to'xtab o'tmoqchimiz. Bu tushuncha so'nggi yillarda talim-tarbiya jarayonlarida ma'lum darajada qo'llanilmoqda. Lekin bu tushunchaning mazmun va ma'nosini tahlil etishga hamda insonlarda kreativlikning shakllanganlik darajasini aniqlashga doir qator tatqiqotlar olib borilgan. Kreativlik — shaxsning muammoli

vaziyatlardan tafakkuri orqali, takrorlanmas yo'l bilan chiqib ketish, unga ijodiylik bilan yondasha olish qobiliyati hisoblanadi.

"Ijodkorlik - bu ko'pchilikka noma'lum va murakkab xususiyatlarni o'rganishga imkon beruvchi tafakkuri va ruhiyatining har xil sharoitlarda jamol ko'rsatishi bilan bog'liq o'ziga xos fikrlash faoliyati modeli", "Ijodkorlik - bu aql gimnastikasi, u nafaqat donishmandlargagina kerak va hatto oddiy ijodkor odamga ham zarur", "Ijodkorlik - bu avvalo mehnatga ijodiy munosabatda bo'lishni tarbiyalash, yangi bilimlarni o'zagartirishni uddalay olish, maqsad sari intiluvchanlik, g'alaba uchun kurash, o'z-o'zini takomillashtirish va o'zlikni anglashdir" kabi ta'riflar ijodkorlikning o'ziga xos mohiyati haqida ochib berilgan.<sup>1</sup>

O'qituvchi kreativligi (ijodkorlik) - pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati.

"Pedagogik ijodkorlik" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

- 1) o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularini o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan o'quvchilar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalg etish;
- 2) o'qituvchilarga o'quvchilarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish qilish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish. Xo'sh, o'quvchini qanday ijodiy fikrlashga o'rgatish mumkin? O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, darslarni yangi texnologiya va metodlar orqali o'tish o'quvchida bilim va ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga ulardagi ijodiylik, yaratuvchanlik qobiliyatini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijodkorlik faoliyatini alloma Forobiy "bu jarayonda inson barcha aqliy va ruhiy fazilatlarini ishga soladi. Ijodiy faoliyatining hal qiluvchi onlari, odatda, alohida diqqat bilan, kishining kuch va qobiliyatlari mavj urgan holatlar bilan bog'liq bo'ladi", - deb izohlaydi.<sup>2</sup> Atrofga nazar solsangiz inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalariga duch kelasiz: elektron xizmatlar, virtual olam, internet va shu kabilar. Bularning barchasi inson tafakkuri mahsulidir. Mana shunday ijodiy tafakkurni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayonidan boshlanadi. Pedagoglarda kreativ faoliyatni bilishga oid (gnostik), loyihalash, ijodiy-amaliy (konstruktiv), tadqiqotchilik, muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ), tashkilotchilik, texnik-texnologik tashkil etishga imkon beradigan malakalardir. O'quvchilar o'zlarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to'la namoyon qilishlari mumkin. Agar o'quvchilarda muvaffaqiyatsizlikka uchrash qo'rquv hissi mavjud bo'lsa, fikrni noto'g'ri ifodalashdan hadiksirasalar, tanqidga uchrasalar bunday vaziyatda ularda kreativ fikrlash ko'nikmalarini samarali shakllantirish yoki rivojlantirish mumkin bo'lmaydi. o'quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko'nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin. Bu jarayonda ular tomonidan mavzu mazmunining puxta anglanishi va kreativ fikrlash ko'nikmalarini baholashda qo'llaniladigan metod va vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zini tavakkaldan olib qochish, fikrlash va xatti-harakatlarda qo'polikka yo'l qo'yish,

<sup>1</sup> Tolipov.U,Q, Sharipov SH.S "O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar" "Fan" nashri 2012-yil 19-bet

<sup>2</sup> Tolipov.U,Q, Sharipov SH.S "O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar" "Fan" nashri 2012-yil 18-bet

shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi, boshqalarga tobe bo'lish, har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash. Ushbu omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. O'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish, ularda kreativ tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o'qituvchining o'zi kreativ shaxs bo'lishi zarur. Bordi-yu, uning o'zi kreativlik sifatlariga ega bo'lmasa, u holda qanday qilib, o'quvchilarni kreativ fikrlashini rag'batlantira oladi.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchining o'zi kreativ, ijodkor bo'lsagina, o'quvchilar ham shunday bo'la oladi. O'qituvchining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki darslarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Tolipov.U,Q, Sharipov SH.S "O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish pedagogik asoslar" "Fan" nashri 2012-yil 18,19-bet.
2. O',J.Yo'ldoshev tahriri ostida. "Umumiy pedagogika". –T.:«Fan va texnologiya», 2017.
3. Nodira Egamberdiya "Ijtimoiypedagogika" Toshkent 2019.
4. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)